



IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLINI QO'LLAB-QUVVATLASH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI

WAYS TO REDUCE POVERTY THROUGH SUPPORTING THE SOCIAALLY VULNERABLE POPULATION

**¹Toyirov Shohboz
Ziyodullo o'g'li**

¹Iqtisodiyot va pedagogika NTM "Iqtisodiyot" kafedrası assistenti.
G-mail: p.bunyodkor122@gmail.com, ORCID: 0009-0005-4087-0523

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada kambag'alikka qarshi kurashishda ijtimoiy himoya tizimining ahamiyati va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi keltirilgan. Shuningdek, O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda nafaqalarni manzilli va maqsadli to'lanishini ta'minlashda aksariyat nafaqalarni "proaktiv shakl"da tayinlanishini belgilash bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Eng. - This article highlights the importance of the social protection system in combating poverty and outlines the procedures for granting and paying social benefits to vulnerable populations. Additionally, it presents proposals and recommendations aimed at ensuring targeted and purposeful payment of benefits in Uzbekistan, emphasizing that the majority of benefits should be assigned in a "proactive manner" to enhance effectiveness.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *ijtimoiy himoya, nafaqa, ijtimoiy transfertlar, nogironlik nafaqasi, kambag'allik, ijtimoiy ta'minot.*
❖ *social protection, benefit, social transfers, disability allowance, poverty, social security.*

Kirish.

So'nggi yigirma yil ichida ijtimoiy himoya dasturlari va ularning samaradorligini baholovchi tadqiqotlar sezilarli darajada ko'paydi. Bunga xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan konferensiyalar, davra suhbatlari hamda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlovchi memorandumlar misol bo'la oladi.

Hozirgi kunda 193 ta davlat a'zosiga ega Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida global hamjamiyat 2030-yilgacha qashshoqlik va ochlikka barham berishni asosiy maqsad sifatida belgiladi. Ushbu maqsadga erishishning turli yo'llari mavjud bo'lib, ulardan biri sifatida kuchli ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish ko'rsatib o'tilmoqda.

Bugungi kunda kambag'allik eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Uni hal etish uchun islohotlarni amalga oshirish va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmonida mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha 2026-yilga qadar kambag'allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish, kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish hamda ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash lozimligi maqsadli ko'rsatkichlar sifatida belgilangan [1].

O'zbekistonda Statistika agentligi tomonidan o'tkazilgan 16 mingga uy xo'jaliklari

kuzatuvlariga ko'ra, mamlakatda kambag'allik darajasi 2023 yil yakunida 11 foizni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 3,1 foizga qisqargan. Bu holat, albatta, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning samarasidir. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularni bandlikka jalb etish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin.

Bunda nafaqat moddiy yordam, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunarga o'qitish kabi ko'p yo'nalishli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ijtimoiy himoya dasturlari har tomonlama tahlil qilinib, manzillilik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ijtimoiy himoya keng ko'lamli tushuncha bo'lib, muhtoj aholini himoya qilish uchun mo'ljallangan ijtimoiy transfertlar, xizmatlar va ijtimoiy kafolatlar to'plamidir [5].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy himoya dasturlarining asosiy maqsadi – kambag'allikning asosiy sabablarini bartaraf etish va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashdir. Bu dasturlar orqali aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash, bandlik darajasini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish ko'zda tutiladi [6].

Ijtimoiy himoya qashshoqlikni kamaytirishda eng samarali vositalardan biri bo'lib, 2022-yil holatiga ko'ra dunyoda bir milliarddan ortiq kishi nafaqa kabi pul to'lovlarini olgan [7].

Ko'pgina davlatlar uchun ijtimoiy himoya dasturlari ijtimoiy masalalarni hal qilishda hamda rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy himoya dasturlari mamlakatdagi kambag'allik muammolarining keltirib chiqarishi mumkini bo'lgan salbiy oqibatlarini bartaraf etishga yordam beradi [8].

Aholini ijtimoiy himoya qilish – bu fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash, ularga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavflarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir [9].

Ijtimoiy ahamiyatga ega sabablar tufayli ishdan yoki doimiy daromad manbaidan mahrum bo'lish, moliyaviy ahvoldan yomonlashuvi, shuningdek, yordamga muhtoj oila a'zolarining tibbiy-ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojini qondirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar – ijtimoiy xavf yoki ijtimoiy risk deb ataladi [10].

Insonlarni ijtimoiy havf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ijtimoiy himoya tizimi deyiladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi o'zining rivojlanish tarixiga ega. Ilk bor aholini ijtimoiy himoya qilish diniy tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan ijtimoiy himoya tizimida davlatning roli oshib bordi [11].

"Ijtimoiy himoya" atamasi birinchi marta 1935 yilda AQShning "Ijtimoiy himoya to'g'risida"gi Qonunida ishlatilgan. Ushbu qonunga ko'ra majburiy sug'urta qilish orqali o'limdan, keksalikda, nogiron bo'lganda va ishsizlikdan himoya qilish tartibi belgilangan. Keyinchalik bu atama boshqa mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlar amaliyotida keng qo'llanila boshlandi [12].

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy himoya – bu qonun bilan mustahkamlangan ko'p bosqichli iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy tizimdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqalar tayinlash va to'lash 2024

yilga qadar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'arasi tomonidan amalga oshirib kelingan bo'lsa, mazkur amaliyot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi PF-82-son farmoniga ko'ra 2024 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan to'lanishi belgilandi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslar toifasiga kimlar kiradi? Quyida keltirilgan rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslar

nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalar, OIV infeksiyasiga chalingan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar hamda 18 yoshdan katta bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar;

davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxslar;

bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor onalar;

yoshidan qat'i nazar ish stajiga ega bo'lmagan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;

davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lmagan shaxsning qaramog'ida bo'lgan oilaning mehnatga layoqatli bo'lmagan a'zolari.

1-rasm. Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslar toifasi

Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan quyidagi nafaqalar to'lanmoqda:


- yoshga oid nafaqa;
- boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi;
- o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakiliga nafaqa;
- bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga nafaqa (1 va 2-guruh, 18 yoshdan katta);
- 1 va 2-guruh nogironlari uchun nafaqa;
- kam ta'minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi;

– kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam;

– farzand tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa (Suyunchi puli);

– dafn etish uchun nafaqa (Dafn puli).

Shuningdek, fuqarolar ijtimoiy to'lovlar uchun ariza berish, ularni ko'rib chiqish, tayinlash va to'lash bilan bog'liq barcha savollariga tuman yoki shaharlardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga murojaat qilishlari mumkin. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi 2023-yil 15-oktabrdan boshlab 28 ta tuman (shahar)larda eksperiment tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzurida tashkil etilgan tizim hisoblanadi.



2-rasm. O'zbekistonda ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni (2023-yil)

2023-yilda ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 639,7 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2017-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 380,6 ming nafarga (246,9 foizga) oshganini ko'rsatadi.


Keltirilgan raqamlarni chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni tarkibida nogironlik nafaqasi asosiy ulushni (44 foiz) tashkil qilmoqda. Agar o'zgalar parvarishiga muhtoj, 18 yoshgacha bo'lgan nogironligi bo'lgan bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakillarga, shuningdek, bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga to'lanadigan nafaqalarni ham hisobga olsak, nogironlik bilan bog'liq nafaqalarning jami nafaqalardagi ulushi 81 foizni tashkil etadi. Bu esa ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga berilayotgan nafaqalar ichida nogironlik bilan bog'liq ijtimoiy nafaqalar alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga nafaqa tayinlash jarayonidagi amaliy muammolar sababli, ko'plab ariza beruvchilar byurokratik to'siqlar bilan duch kelgan, bu esa ularning nafaqa olish jarayonini murakkablashtirgan. Ba'zi hollarda esa arizalar rad etilgan holatlar ham kuzatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 119-son

qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom asosida nafaqalar tayinlash va to'lash tartibga solindi. Qarorga ko'ra, nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik, parvarishlash, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik va yoshga doir nafaqalar tayinlanadi. Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nafaqa hamda parvarishlash nafaqasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan "proaktiv shakl"da tayinlanishi belgilangan. Proaktiv shakl – bu xizmat ko'rsatish yoki yordam ko'rsatishning shunday shaklidaki, fuqarolar ariza bilan murojaat qilmasdan turib, davlat yoki tegishli tashkilotlar o'z tashabbusi bilan yordam ko'rsatadi yoki huquqni amalga oshirishni boshlaydi. Agar nogironligi bo'lgan bola Yagona milliy ijtimoiy himoya reyestri bazasida ro'yxatda bo'lsa, uning parvarishchisi (onasi yoki boshqa qarindoshi) ariza topshirmasdan ham, unga parvarish uchun nafaqa proaktiv shaklda tayinlanadi.

Bu yondashuv fuqarolarga qulaylik yaratadi, korrupsiya xavfini kamaytiradi va yordamning o'z vaqtida etkazilishini ta'minlaydi. Bu esa nafaqa oluvchilar uchun ko'play qulayliklar yaratadi.



3-rasm. O'zbekistonda nogironlik nafaqasini oluvchilar soni hamda ulardan yangi tayinlangan nogironlik nafaqalar soni

Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nafaqa hamda parvarishlash nafaqasini "proaktiv shakl"da tayinlash amaliyoti natijasida mazkur nafaqa oluvchilar soni ko'payishiga erishildi.

Nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik va yoshga doir nafaqalar tayinlanishi uchun fuqaro davlat xizmatlari markazlari yoki YaIDXP (my.gov.uz) orqali murojaat qilinadi. Davlat xizmatlari markazidan ma'lumot olingandan so'ng, 5 daqiqa ichida nafaqa tayinlangan taqdirda, nafaqani qachon va qayerdan olish to'g'risida murojaat qiluvchi xabardor qilinadi.

Nafaqalar nafaqa oluvchining xohishiga ko'ra, nafaqani yetkazib berish (topshirish) vakolati yuklangan tashkilot yoki fuqarolarning depozit hisobvaraqlariga pul o'tkazish yo'li bilan bank filiali orqali to'lanishi mumkin. Nafaqalar har oyda belgilangan muddatlarda, biroq joriy to'lov oyidan kechikmay to'lanadi. Nafaqa oluvchi O'zbekiston hududida doimiy yashash uchun boshqa tuman (shahar)ga ko'chganda, nafaqani to'lash yangi yashash joyi

bo'yicha davom ettiriladi. Bunday holatda nafaqa to'lash avvalgi yashash joyi bo'yicha nafaqa to'lash to'xtatilgan vaqtdan boshlab davom ettiriladi.

"Proaktiv shakl"da nafaqalarni tayinlash amaliyotini joriy etishdan maqsad shundan iboratki, ilgari nogironligi bo'lgan bolalarga nafaqa faqat alohida murojaat qilgandan so'ng tayinlangan va ko'pincha arizalar rad etilgan.

Yangi o'zgarishlarga ko'ra, nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda immunitet tanqisligi virusi (OIV) bilan kasallangan 18 yoshgacha bolalarga to'lanadigan nafaqalar hamda parvarishlash nafaqasi fuqarolardan qo'shimcha hujjatlar talab qilmasdan, murojaatisiz "proaktiv shakl"da tayinlanadi.

Natijada, yiliga o'rtacha 70 mingdan ortiq fuqarolarning nafaqa olish uchun murojaat qilish tartibi bekor qilindi va ijtimoiy to'lovlar axborot tizimlaridagi ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda tayinlanmoqda.

Quyidagi jadvalda O'zbekistonda ijtimoiy nafaqalarning joriy miqdorlari keltirilgan.

1-jadval

O'zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga beriladigan nafaqalar

Nº	Nafaqa turi
1.	Pensiya tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi shaxslarga yoshga doir nafaqasi
2.	Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi: - bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun; - har bir keyingi oila a'zosi uchun.
3.	Nogironlik nafaqasi: - I guruh uchun; - II guruh uchun.
4.	O'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan qonuniy vakiliga nafaqa
5.	Bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga nafaqa (1 va 2-guruh, 18 yoshdan katta): - I guruh uchun; - II guruh uchun.
6.	Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik nafaqasi
7.	Kam ta'minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi: - yoshi 3 yoshgacha bo'lgan bitta kichik farzandi uchun; - 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bitta farzandi uchun; - oilaning ikkinchi farzandi uchun qo'shimcha; - oilaning uchinchi va undan keyingi har bir farzandi uchun.
8.	Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam
9.	Farzand tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa
10.	Dafn etish uchun nafaqa

Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga beriladigan nafaqalar miqdori yildan yilga oshirilmoqda. Bu esa nafaqa oluvchilarning ijtimoiy ta'minoti yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Pensiya jamg'armasi bergan ma'lumotga ko'ra, 2023-dekabr holatiga ko'ra ijtimoiy nafaqalarning o'rtacha miqdori 708,3 ming so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 54,6 ming so'mga yoki 8 foizga oshgan.

Xulosa va takliflar.

Xalqaro tajribada ijtimoiy himoya tizimlari fuqarolar va ularning oilalariga, jumladan, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga moddiy ahvolini

yaxshilashi uchun, oila a'zolarining ish topishlariga, tibbiyot xizmatlari va ta'limga sarmoya kiritishiga hamda mehnat layoqatini yo'qotganlarga hor tomonlama ko'mak berishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonda ham amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi yildan-yilga oshib bormoqda. Natijada kambag'allik ko'rsatkichlari ham kamayganligini yuqorida ko'rib o'tdik. Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqalarni tayinlashni takomillashtirish borasida amalga oshirilgan o'zgarishlar istiqbolda o'zining samarasini beradi va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 308-son "Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa va qo'shimcha to'lovlarni tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash va ushbu sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali davlat xizmati sifatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 119-son qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom.
5. Guy Standing. Social protection. Development in Practice, Volume 17, Numbers 4 –5, August 2007.
6. Hidrobo M. et al. Social protection, food security, and asset formation //World Development. – 2018. – T. 101. – S. 88-103. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0305750X17302851#b0055>
7. Fiszbein A., Kanbur R., Yemtsov R. Social protection and poverty reduction: Global patterns and some targets //World Development. – 2014. – T. 61. – S. 167-177. <https://www.sciencedirect.com/science/article>
8. Fiszbein A., Schady N. R. Conditional cash transfers: reducing present and future poverty. – World Bank Publications, 2009.
9. Развитие эффективной социальной поддержки населения в России: адресность, нуждаемость, универсальность. Назаров В. и Пошарас А., ред. Научный доклад. М.: Научно-исследовательский финансовый институт; Всемирный банк; 2017. 144 с.
10. Борисенко Н.Ю. Построение национальной системы пенсионного обеспечения: теория и практика // Финансы и кредит. 2007. № 17. С. 54-65.
11. Tursunov J.P., Jumabaeva K.B. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi: bugungi holat va rivojlanish istiqbollari. // Fundamental tadqiqotlar. No 1 (2023) B. 25-33
12. Sholdarov D., Tursunov J. Improvement of the system of state pension provision in Uzbekistan //Scientific journal "Finance", 1st issue. – 2018. – T. 107.